<i>Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari..... 714 Aslanova Malohat Akramovna
	Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida..... 718 Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi
	Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish 721 Ne'matova Diyora Dilshod qizi
	Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati 725 Pirimova Nargiza Adilovna
	Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi..... 728 Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi
	Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari 733 O'tahanova Manzura G'ofurovna
	Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context..... 736 Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna
	Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni . 749 Altibayeva Malika Kuvandikovna
	Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari 752 Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi
	Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar 757 Shukurova Nargiza Ikramovna
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati 762 Xudoyberdiyev Sh. M.
	Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari..... 766 Esanbekova Fotima G'ayratjonovna
	Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) 770 Багирова Паринисо Бобировна
	Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775 Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi
	Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili 780 Toshtemirova Nigora Ibrohimovna
	Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari 784 Tovoshova Ozoda Akmal qizi
	Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789 Kaxarova Ozoda Abdimominovna
	Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793 M. B. Pulatova
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili 796 Maraimova Muxtabar Pulatovna
	Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801 Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Qudrat qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	



TABIY FANLAR DARSLARIDA KREATIV TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Farmanova Parvina Jamshid qizi

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim tizimida tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan STEAM yondashuvi, raqamli ta'lim vositalari va interfaol metodlarning o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, kreativ muhitni takomillashtirish yo'llari, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirish omillari aniqlangan.

Kalit so'zlar: kreativlik, innovatsion texnologiyalar, tabiiy fanlar, ta'lim muhiti, interfaol metodlar, STEAM, raqamli ta'lim, pedagogik kompetensiya.

Abstract: This scientific article analyzes the theoretical and methodological foundations for the formation of a creative learning environment in natural science classes within general and higher education systems. The study substantiates the role of innovative pedagogical technologies, including the STEAM approach, digital learning tools, and interactive methods, in developing students' creative thinking. Furthermore, the paper identifies ways to improve the creative environment, enhance teachers' professional competencies, and increase educational effectiveness.

Key words: creativity, innovative technologies, natural sciences, learning environment, interactive methods, STEAM, digital education, pedagogical competence.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования креативной образовательной среды на уроках естественных наук в системе общего и высшего образования. Обоснована роль инновационных педагогических технологий, включая STEAM-подход, цифровые образовательные ресурсы и интерактивные методы, в развитии творческого мышления обучающихся. Также определены пути совершенствования креативной среды, развития профессиональных компетенций преподавателей и повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: креативность, инновационные технологии, естественные науки, образовательная среда, интерактивные методы, STEAM, цифровое образование, педагогическая компетентность.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish sharoitida tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xususan, tabiiy fanlar ta'limi oldiga qo'yilayotgan asosiy talab - bu nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va kreativ yondashuvni shakllantirishdan iboratdir. Shu boisdan, kreativ ta'lim muhitini yaratish pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Kreativlik bugungi kunda shaxsning muhim kompetensiyalaridan biri sifatida e'tirof etilib, u innovatsion iqtisodiyot va bilimlar jamiyatining asosiy omili hisoblanadi.

Pedagogika fanida kreativ ta'lim muhiti tushunchasi o'quvchilarning erkin fikrlashi, yangi g'oyalarni ilgari surishi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beruvchi didaktik sharoit sifatida talqin etiladi. Bunday muhitni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion yondashuvi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar kabi tajribaga asoslangan fanlarda kreativ muhitni yaratish orqali o'quvchilarning ilmiy tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlardan innovatsion yondashuvlarga o'tish jarayoni jadallashmoqda. Bu esa o'z navbatida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishni, o'qitish metodlarini takomillashtirishni hamda ta'lim muhitini modernizatsiya qilishni talab etadi.

Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirish bugungi kunda nafaqat pedagogik metodika masalasi, balki jamiyatning intellektual salohiyatini belgilovchi strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda, chunki zamonaviy iqtisodiyot sharoitida oddiy bilimlarni egallash emas, balki mavjud bilimlarni yangicha talqin qilish, ularni real hayotiy muammolar yechimiga moslashtirish va mutlaqo yangi g'oyalar yaratish qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Tabiiy fanlar o'z mohiyatiga ko'ra kuzatish, tajriba va tahlilga asoslangan bo'lib, ular o'quvchilarda nafaqat mantiqiy fikrlashni, balki intuitiv va tasavvuriy tafakkurni ham rivojlantiradi, shu sababli aynan fizika, kimyo va biologiya darslari kreativ tafakkurni shakllantirish uchun eng qulay pedagogik maydon hisoblanadi, biroq bu imkoniyat faqatgina o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilgan ta'lim muhiti mavjud bo'lgan taqdirdagina to'liq namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson miyasi yangi g'oyalarni yaratish jarayonida turli funksional zonalarning o'zaro integratsiyasi orqali ishlaydi, ya'ni kreativ fikrlash faqat mantiqiy operatsiyalar bilan emas, balki tasavvur, assotsiatsiya va emotsional idrok bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy, reproduktiv ta'lim esa asosan bitta - analitik komponentni rivojlantirish bilan cheklanadi, natijada o'quvchilarning to'liq intellektual salohiyati ochilmay qoladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarning bilim olish faoliyati passiv qabul qilishdan faol izlanishga o'tadi, bunda o'quvchi tayyor bilimni o'zlashtiruvchi subyekt emas, balki bilimni yaratuvchi va qayta ishlovchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi, bu esa o'z navbatida uning o'rganilayotgan hodisalarga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantiradi va bilimlarni chuqurroq anglashiga olib keladi.

Sun'iy intellekt rivojlanayotgan hozirgi davrda bilimlarning katta qismi texnologiyalar tomonidan tez va aniq qayta ishlanishi mumkin bo'lib qolganligi sababli, insonning ustun jihati sifatida aynan kreativ tafakkur, ya'ni mavjud ma'lumotlar asosida yangi g'oya va yechimlar ishlab chiqish qobiliyati ajralib turadi, shu bois ta'lim tizimi ham ushbu yangi talabga mos ravishda qayta tashkil etilishi zarur.

Raqamli texnologiyalar va virtual ta'lim muhirlari o'quvchilarga murakkab ilmiy jarayonlarni vizual tarzda idrok etish, tajribalarni xavfsiz sharoitda ko'p marotaba takrorlash va natijalarni mustaqil tahlil qilish imkonini berishi bilan kreativ fikrlashni rivojlantirishda katta salohiyatga ega, biroq ular faqat vosita bo'lib, haqiqiy kreativ muhit o'qituvchining pedagogik mahorati va metodik yondashuvi orqali shakllantirilishini unutmazlik lozim.

Kreativ ta'lim muhitining muhim jihatlardan biri shundaki, unda o'quvchining xato qilishiga ijobiy munosabat shakllantiriladi, chunki ilmiy izlanish jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra sinov va xatolardan iborat bo'lib, aynan shu jarayon orqali yangi bilimlar yuzaga keladi, shu sababli o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etishi va noto'g'ri javob berishdan qo'rqmasligi kerak, aks holda uning ijodiy salohiyati to'liq namoyon bo'lmaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o'qituvchi bilim beruvchi markaziy figura emas, balki ta'lim jarayonini loyihalovchi va boshqaruvchi, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etuvchi hamda ularni ijodiy izlanishga undovchi fasilitator sifatida qaraladi, bu esa o'z navbatida darsning mazmuni va shaklini tubdan o'zgartirib, uni dialog, hamkorlik va izlanishga asoslangan interfaol jarayonga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan, tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishni faqatgina metodik yangilik sifatida emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish zarur bo'lib, u o'z ichiga didaktik, psixologik, texnologik va ijtimoiy komponentlarning o'zaro uyg'unligini qamrab oladi hamda aynan shu uyg'unlik orqali yuqori samaradorlikka erishiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ ta'lim muhitini shakllantirish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, kreativlikni rivojlantirish nazariyalari doirasida E. Torrance, J. Guilford kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Ular kreativ fikrlashning divergent tafakkur bilan uzviy bog'liqligini asoslab berganlar.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari J. Dewey, L. Vygotsky kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar asosida rivojlangan. Ularning fikricha, ta'lim jarayoni o'quvchining faol ishtiroki va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri asosida samarali bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish va eksperiment metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali tabiiy fanlar darslarida kreativ muhitni shakllantirishning samaradorligi o'rganildi hamda innovatsion texnologiyalarning amaliy natijalari tahlil qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

1. Kreativ ta'lim muhitining nazariy asoslari

Kreativ ta'lim muhiti - bu pedagogik jarayonning shunday shakli, unda o'quvchilar mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu muhit quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi: motivatsion komponent, kognitiv komponent, faoliyat komponenti va refleksiv komponent. Motivatsion komponent o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini shakllantirsa, kognitiv komponent bilim va tushunchalarni egallash jarayonini ifodalaydi. Faoliyat komponenti esa o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi.

Kreativ muhitni shakllantirishda o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi. U nafaqat bilim beruvchi, balki fasilitator, motivator va innovator sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos yondashuvni qo'llash muhimdir.

Tabiiy fanlar darslarida kreativ muhitni yaratish ayniqsa muhim bo'lib, bu fanlarning tajribaviy xarakteri bilan bog'liq. Tajribalar, laboratoriya ishlari, loyihaviy faoliyat va muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilarning ilmiy tafakkuri rivojlantiriladi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalar kreativ muhitni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

2. Tabiiy fanlar darslarida kreativ muhitni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar

Zamonaviy pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalar kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar ta'limida ushbu texnologiyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va ijodiy fikrlashini rivojlantirish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quv jarayoni interfaol, qiziqarli va samarali shaklga ega bo'ladi.

Birinchi navbatda, STEAM ta'limi yondashuvi tabiiy fanlar ta'limida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv fanlararo integratsiyani ta'minlab, o'quvchilarda kompleks fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. STEAM asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar muammolarni hal qilish, loyihalar yaratish va tajribalar o'tkazish orqali bilimlarni mustaqil ravishda egallaydilar. Bu esa ularning kreativlik darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Raqamli texnologiyalar ham kreativ muhitni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Xususan, PhET Interactive Simulations, Google Classroom, Kahoot! kabi platformalar orqali o'quvchilarga virtual laboratoriyalar, interaktiv topshiriqlar va testlar taqdim etiladi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda dars jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar ham ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda. AI asosidagi tizimlar o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, individual ta'lim trayektoriyalarini yaratish va o'quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida kreativ muhitni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar ham innovatsion texnologiyalar tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyatga ega. "Aqlik hujum", "Klaster", "Case-study", "Debat" kabi metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarda analitik va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

3. Kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning amaliy jihatlari

Tabiiy fanlar darslarida kreativ muhitni shakllantirish faqat nazariy yondashuvlar bilan cheklanib qolmay, balki amaliy faoliyat orqali ham amalga oshiriladi. Amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, tajribalar va loyihaviy faoliyat bu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borishi, tajribalar natijasini tahlil qilishi va xulosalar chiqarishi kreativlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib ishlash ularning hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Guruhda ishlash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etadilar, boshqa fikrlarni tinglaydilar va muammolarni birgalikda hal qiladilar. Bu esa kreativ muhitning muhim belgilaridan biridir.

Shuningdek, o'qituvchi tomonidan yaratilgan psixologik qulay muhit ham katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning xatolariga nisbatan tolerant munosabatda bo'lish, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchi o'zini erkin his qilgan taqdirdagina u yangi g'oyalarni ilgari surishga jur'at etadi.

4. Innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish yo'llari

Kreativ ta'lim muhitini yanada rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish zarur. Bu jarayon bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Avvalo, o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagog yangi texnologiyalarni bilishi, ularni amaliyotda qo'llay olishi va doimiy ravishda o'z ustida ishlashi zarur.

Ikkinchi muhim yo'nalish - ta'lim jarayonini raqamlashtirishdir. Raqamli ta'lim resurslarini keng joriy etish, virtual laboratoriyalarni yaratish va onlayn platformalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish ham muhimdir.

Har bir o'quvchining qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim tashkil etilishi kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy talablar asosida yangilash ham muhim hisoblanadi. Tabiiy fanlar dasturlarida amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, loyiha asosida o'qitishni keng joriy etish zarur. Bu esa o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularning kreativ salohiyatini rivojlantiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan pedagogik kuzatishlar va tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim darajasi va o'quv motivatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faolligi an'anaviy darslarga nisbatan yuqori bo'lishi kuzatildi. Bu esa ularning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga imkon yaratdi.

Tajriba natijalariga ko'ra, STEAM ta'limi asosida o'qitilgan guruhlarda o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari, mantiqiy va kreativ fikrlash darajasi sezilarli darajada oshganligi aniqlandi. Shu bilan birga, raqamli platformalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ muhitni shakllantirishda quyidagi omillar alohida ahamiyatga ega: o'qituvchining innovatsion yondashuvi, o'quvchilarning faol ishtiroki, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va psixologik qulay muhit yaratish. Ushbu omillar uyg'unlashganda ta'lim jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

XULOSA

Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada o'rganilgan nazariy va amaliy jihatlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim sifatini oshirish mumkin.

Kreativ muhitni shakllantirishda o'qituvchining roli beqiyos bo'lib, u zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur o'zlashtirgan holda o'quv jarayonini tashkil etishi zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish va amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish orqali kreativ muhitni yanada takomillashtirish mumkin.

Umuman olganda, tabiiy fanlar ta'limida kreativ muhitni shakllantirish innovatsion rivojlanishning muhim omili bo'lib, u kelajakda raqobatbardosh, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Torrance E.P. Creativity in the Classroom: What Research Says to the Teacher. – Washington: National Education Association, 1970.
2. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
3. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
6. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi farmoni.
8. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2016.
9. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2012.
10. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2018.
11. Bybee R.W. The Case for STEM Education. – Arlington: NSTA Press, 2013.
12. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018.
13. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. – Paris, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.